

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI
FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakulteti dekani, f.-m.f.n.

_____ G'.F.Djabbarov
“ ____ ” _____ 2014 yil

“5140100-matematika” ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

RAJABOVA Dilnoza Maxmaraximovnaning

“FAZODA SFERAGA NISBATAN INVERSIYA”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba:_____D.M.Rajabova

Ilmiy rahbar: “Matematika va uni
o'qitish metodikasi” kafedrası,
dotsenti f.-m.f.n.

_____X.X.Nazarov

Taqrizchilar:

“Matematika va uni o'qitish
metodikasi” kafedrası dotsenti,
f.-m.f.n.

_____D.E.Davletov

TTYSI qoshidagi 2-sonli akademik
litsey matematika o'qituvchisi

_____B.Jumayev

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“Matematika va uni o'qitish metodikasi”

kafedrası mudiri professor,

f.-m.f.d. _____R.B. Beshimov

“ ____ ” _____ 2014 yil

Toshkent 2014 yil

MUNDARIJA

Kirish.	2
1-bob Tekislikda inversiya va uni xossalari.	
§ 1.1 Inversiyaning ta’rifi va turlari	7
§ 1.2 Nuqtani inversion akslantirish va inversiyaning xossalari. Aylanaga inversion mos figura	10
2-bob Sferaga nisbatan inversiya.	
§ 2.1 Sferaga nisbatan inversiya va uni xossalari.....	24
§ 2.2 Inversiyada egri chiziqlar orasidagi burchakning o’zgarmasligi	28
§ 2.3 Streografik proeksiya ta’rifi va xossalari	33
§ 2.4 Streografik proeksiya va inversiya.....	41
Xulosa	48
Foydalangan adabiyotlar.	
Ilova	

Kirish

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri - bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq.

I.A.Karimov

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasidagi milliy va ijtimoiy–tarixiy taraqqiyotning tezkor surati, ro'y berayotgan ijtimoiy hodisalar mazmuni, fan texnika va texnologiya sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlarning ta'lim sohasiga faol tadbiq etilishi yosh avlodni tarbiyalashda o'ziga xos yondashuvni qaror toptirish zaruriyatini olib chiqmoqda. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning qabul qilinishi jamiyatda uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ta'lim jarayonining faol subyekti o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat mohiyatining yangicha yo'nalishi va mazmunga tayanish zarurligini ko'rsatmoqda.

Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi IX sessiyasida (1997-yil 29-avgust)da so'zlagan nutqida ta'lim jarayoni darslikdan boshlanishi haqidagi haqiqatga to'xtalib shunday degan edi: ”Yangi darsliklarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur”[5].

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida o'quvchilarning sog'lom fikr, yangicha tafakkur, ilmiy bilim bilan qurollantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni taqozo etmoqda. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'quvchilarning muammolarni izlab topish, ularni hal qilish loyihalarini ishlab chiqish, ularni joriy etish bilan bog'liq jarayonlarni mustaqil ravishda bajarishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli kitobida ilm-fan imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish to'g'risidagi o'zining fikrlarini quyidagi so'zlar bilan bayon etgan: "Hozir Respublika har qachongidan ham ko'ra ilgarilab ketishi, o'sishi yangi sifat bosqichlariga ko'tarilishi juda zarur. Buning uchun, avvalo, ilm-fanda ham, texnikada ham, texnologiyada ham, ishlab chiqarishni tashkil etishda ham shitob bilan ishlash shunga yarasha odamlar ongida, dunyoqarishida ham o'zgarishlar bo'lishi kerak. Endilikda ilm-fan yangi yo'llar ochishi, sifat jihatidan yangi texnologiyalarni jadallik bilan yaratishi, jamiyatning yangi holatga o'tishini taminlashi lozim" [4].

Fan samaradorligini sifat jihatdan oshirishga quruq da'vatlar bilangina erishish mumkin emas. Ilmiy kadrlarga munosabatni ham tubdan o'zgartirish, ularning ijtimoiy maqomini qat'iyan oshirish, chuqur struktura o'zgarishlari qilish zarur.

Fanni malakali kadrlar bilan ta'minlash, xodimlarning professional bilimdonligi darajasini oshirish, ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlarni yaratish, ilmiy jarayonni jadallashtirishning asosiy omilidir.

Talim tiziming rivojlantirish darajasi bo'yicha O'zbekiston dunyoning 141 mamlakati orasida ikkinchi o'rinni band etgan[1].

Fanni malakali kadrlar bilan ta'minlash, xodimlarning professional bilimdonligi darajasini oshirish, ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlarni yaratish, ilmiy jarayonni jadallashtirishning asosiy omilidir [2].

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim tarbiya sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, mutlaqo yangicha qarash barpo etildi desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko'tarish sohasida muhim chora tadbirlar amalga oshirib borilmoqda. O'zbekiston hukumati ta'limga islohatlarning barcha bosqichlari uchun ham ustuvor soha deb qarab kelmoqda.

Yoshlarimiz iste'dod, bilim va intellektual salohiyat bobida hech kimdan kam bo'lmaslikka intilmoqdalar. Bu, albatta, yurtimizda navqiron avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini kashf etish va yuzaga chiqarishga yuksak e'tibor qaratilayotganligi samarasidir. Zero, mamlakatimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq, umumta'lim maktablaridan tortib, o'rta mahsus kasb-hunar o'quv maskanlarigacha - barchasida ta'limning yangicha, o'ziga hos uslublari joriy qilindi. Ayni jihat esa intiluvchan yoshlarning yutuq hamda muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minlash, jamiyatning turli jabhalarida xizmat qiladigan yetuk malakali mutahassislar tayyorlashda beqiyos ahamiyat kasb etayotir [6].

Har bir davlatning kuchi uning ilmiy-texnikaviy salohiyati bilan belgilanadi. Mamlakatimizning, umuman olganda barcha davlatlarning texnika va texnologiyalarda erishadigan yutuqlari bevosita matematika va fizika fani bilan bog'liq. Yoshlarimizning matematika va geometriya qonunlarini yaxshi anglashi, voqelikni ilmiy jihatdan to'g'ri tushunishi va amaliyotga qo'llay bilishi lozim [3].

Xususan, masalalarni o'rganish ilmiy dunyoqarashni shakillantirishga sezilarli hissa qo'shadi. Geometrik qonuniyatlarni bilish yordamida ko'plab hayotni yengilashtiruvchi masalalarni yechimini topa olamiz.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Inversiya, fazoda sferaga nisbatan inversiya, xossalari, tadbirlarini o'rganish .

Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti. Fazodagi almashtirishlar.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Fazoda sferaga nisbatan inversiya va uni tadbiqlari;

Bitiruv malakaviy ishining vazifalar.

- Sferaga nisbatan inversiya va uni xossalari.
- Inversiyada egri chiziqlar orasidagi burchakning o'zgarmasligi.
- Streografik proeksiya ta'rifi va xossalari
- Streografik proeksiya va inversiya.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi: Mazkur bitiruv malakaviy ishida, geometrik masalalarni oson usullarda yechish, geometrik isbotlashlarda qulayliklar yaratish.

1-BOB. Tekislikda inversiya va uni xossalari

1.1§ Inversiyaning ta'rifi va turlari

Inversiya so'zi latinchada *inversio* so'zidan olinib, buning ma'nosi teskarisini ag'darish yoki o'rinlarini akslantirish demakdir.

Inversiya — muhim geometrik akslantirishlardan biri bo'lib, u boshqa metodlar yordamida yechilishi qiyin bo'lgan konstruktiv masalalarni osonroq masalaga keltirib yechishga imkon beradi. Inversiya geometriyaning boshqa ko'pgina sohalarida va ba'zi bir mexanizmlarning, masalan, turli inversorlarning tuzilishi va ishlatilishini nazariy asoslashda ishlatiladi


Ta'rif. Agar biror aylana markazidan chiqqan nurning ikki nuqtasidan shu aylana markazigacha bo'lgan masofalarning ko'paytmasi aylana radiusining kvadratiga teng bo'lsa, bunday ikki nuqta bu aylanaga (yoki uning markaziga) nisbatan inversion mos nuqtalar deyiladi.

Bu ta'rifga ko'ra, biror $u(0, r)$ aylana tekisligidagi (O nuqtadan boshqa) A va A' nuqtalar shu aylanaga nisbatan inversion mos bo'lishi uchun bular quyidagi talablarni qanoatlantirishi shart:

- 1) A' nuqta OA nurda yotadi,
- 2) $|OA| \cdot |OA'| = r^2$ munosabat mavjud, (1)
- 3) O nuqta A va A' nuqtalar oralig'ida yotmaydi.

Yuqorida aytilgan u aylana - inversiyaning asosiy aylanasi yoki inversiya aylanasi deyilib, bu aylananing markazi - inversiya markazi (yoki qutbi) deyiladi; inversiya aylanasi radiusi - inversiya radiusi, radiusning kvadrati - inversiya darajasi (yoki koeffitsienti) deyiladi.

Ta'rif. $u(O, r)$ aylana tekisligidagi (O dan boshqa) har bir A nuqtani OA nurda yotgan va $|OA| \cdot |OA'| = r^2$ shartni qanoatlantiruvchi A' nuqtaga o'tkazuvchi akslantirish - inversion almashtirish yoki inversiya deyiladi (1-chizma).



1-rasm

Biz bunday akslantirishni, qisqacha, ushbu

$$I_0^{r^2}(A) = A' \quad (2)$$

simvol orqali belgilaymiz va A nuqtaning O markazli va r^2 darajali inversiyasi A' nuqtadir deb o'qiymiz.

Ta'rif. F' figuraning hamma nuqtalariga inversion mos bo'lgan nuqtalardan tuzilgan F' figura F figuraga inversion mos figura deyildi, yoki qisqacha, F figuraning inversiyasi F' figuradir, deb aytiladi va uni quyidagicha yoziladi:

$$I[F] = F' \quad (2')$$

Agar u (O, r) aylananing radiusi $r = 1$ bo'lsa, (1) munosabat

$$|OA| \cdot |OA'| = 1 \quad (1')$$

ko'rinishda bo'ladi. Bundan:

$$|OA| = \frac{1}{|OA'|} \text{ yoki } |OA'| = \frac{1}{|OA|}.$$

Demak, OA va OA' kesmalarning qiymatlari bir-biriga teskari. SHuning uchun inversion akslantirish teskari radiuslar akslantirishi deb ham yuritiladi.

Agar OA' kesma o'rniga unga qarama-qarshi yo'nalishdagi $|OA''| = |OA'|$ kesmani manfiy hisoblab olsak, bu holda (1) munosabat quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$|OA| * |OA''| = -r^2. \quad (3)$$

Aylana markazigacha bo'lgan masofalari orasidagi munosabat (3) dagi kabi tenglik bilam ifodalangan A va A'' nuqtalar *inversion qarama-qarshi* nuqtalar deb yuritiladi.

(1) munosabatni qanoatlantiruvchi inversiya *musbat darajali inversiya* yoki *giperbolik inversiya* deyilib, (3) ni qanoatlantiruvchi inversiya esa *manfiy darajali inversiya* yoki *elliptik inversiya* deyiladi. 163- chizmadagi A nuqtaning giperbolik inversiyasi A' nuqta, elliptik inversiyasi esa A'' nuqta bo'lib, ular O markazga nisbatan o'zaro simmetrikdir. A , A' va A'' nuqtalar orasidagi munosabatni quyidagicha yozish mumkin:

$$I_o^{r^2}(A) = A'$$

$$I_o^{-r^2} = A''$$

$$Z_o(A') = A''.$$

O 'sha uch nuqta orasidagi munosabatni yana ushbu shaklda yozish mumkin:

$$I_o^{r^2}(A) * Z_o(A') I_o^{-r^2}.$$

Demak, inversiya markaziga nisbatan har bir giperbolik inversiyani simmetrik akslantirish orqali o'sha inversiya aylanasi nisbatan elliptik inversiyaga keltirish mumkin. Shuning uchun bu ikki inversiyadan bittasini, masalan, giperbolik inversiyani o'rganilsa kifoya.

1.2§ Nuqtani inversion akslantirish va inversiyaning xossalari. Aylanaga inversion mos figura

Inversion nuqtalarning ta'rifiga asosan inversiya aylanasi tekisligida yotgan (inversiya markazidan boshqa) har qanday nuqta uchun shu aylanaga nisbatan inversion mos nuqta topish mumkin.

Inversiya aylanasi tekisligida yotgan biror nuqtani inversion almashtirish usulini inversiyaning ta'rifidagi ushbu:


$$|OA \cdot OA'| = r^2 \quad (1)$$

formuladan keltirib chiqarish mumkin.

Bu formulaga ko'ra, 2- chizmadagi OAB uchburchakning $|OB| = r$ kateti ayni vaqtda (O, r) inversiya aylanasi radiusi bo'lib, undagi O nuqta esa o'sha katetning bir uchi bo'lishi bilan birga, u inversiya markazi hamdir. Bundan uchburchak to'g'ri burchagining B uchi inversiya aylanasi yotishi, ya'ni AB kesma (O, r) aylana OB radiusining B uchida urinma ekanligi ma'lum bo'ladi.

Bu muhokamadan, berilgan A nuqtadan berilgan (O, r) aylanaga nisbatan inversion mos A' nuqtani topish usuli kelib chiqadi:

- I. Inversiya aylanasi u (O, r) dan tashqarida berilgan A nuqtani inversion almashtirish uchun OA kesmani diametr qilib yordamchi aylana chiziladi (2-chizma).



Ikki aylananing o'zaro kesishgan B va S nuqtalarini tutashtiruvchi BS vatar OA nur bilan kesishib, izlanuvchi A' nuqtani beradi. Haqiqatan, yasalishiga ko'ra to'g'ri burchakli ABO uchburchakda $(BA') \perp (OA)$ bo'lgani uchun

$$|OA| \cdot |OA'| = |OB|^2.$$

II. Inversiya aylanasi ichida berilgan A' nuqtani inversion almashtirish uchun OA' nurga uning A' nuqtasidan perpendikulyar o'tkaziladi; bu perpendikulyarning inversiya aylanasi bilan kesishgan S (yoki S) nuqtasi orqali shu aylanaga urinma o'tkaziladi. Bu urinma bilan OA' nurning kesishuvidan hosil bo'lgan A nuqta A' nuqtaning inversiyasi bo'ladi. Bu ham yuqoridagidek 2- chizmaning yasalishidan foydalanib isbot qilinadi.

III. Agar berilgan nuqta inversiya aylanasi yotsa, unga inversion nuqta shu nuqtaning o'zi bo'ladi.

Inversion almashtirish quyidagi xossalarga ega:

I. Inversion mos nuqtalar orasida o'zaro inversion moslik mavjud, ya'ni agar A' nuqta A nuqtaga inversioi mos bo'lsa, A nuqta ham A' nuqtaga inversion mos bo'ladi.

Bu xossani qisqacha bunday ko'rsatish qulayroq:

Agar $I_0^{r^2}(A) = A'$ (1) mavjud bo'lsa, u holda $I_0^{r^2}(A') = A$ (2) ham mavjud bo'ladi.

Haqiqatan, agar (2) ni inkor etsak,

$$I_0^{r^2}(A') = B \quad (3)$$

mavjud deyishga to'g'ri keladi.

Inversiyaning ta'rifiga ko'ra: (1) dan $|OA| \cdot |OA'| = r^2$ va (3) dan esa $|OA'| \cdot |OB| = r^2$ o'rinli bo'ladi.

Bu ikki tenglikdan $|OB| = |OA|$, ya'ni faraz qilingan B nuqta A nuqtaning o'zginasi ekanligi ma'lum bo'ladi.

Demak, A va A' nuqtalar orasida ikki karra inversion moslik - o'zaro inversion moslik mavjud deya olamiz. Bu inversion moslikning involyutsionmoslik ekanini ko'rsatadi.

II. A nuqta OA nur bo'yicha O markazdan cheksiz uzoqlashgan sari, A' nuqta O markazga cheksiz yaqinlashadi va, aksincha. Buning to'g'riligi

$$|OA'| = \frac{r^2}{|OA|}$$

munosabatdan anglashiladi. Tenglikning o'ng tomonidagi kasrning surati noldan farqli o'zgarmas miqdor bo'lgani uchun kasrning maxraji cheksiz o'sishi bilan, kasrning qiymati nolga intiladi. Lekin A nuqta O markaz bilan ustma-ust tushganda $|OA| \cdot |OA'| = r^2$ shartni qanoatlantiruvchi hech qanday A' nuqtani topib bo'lmaydi, shu sababli Yevklid tekisligida inversiya markaziga inversion mos nuqta bo'lmaydi.

SHuning uchun inversiyani o'rganishda, inversiya aylanasi tekisligini bu aylananing markazisiz qaraladi (inversiya markazini «o'yib olib tashlangan» deb tasavvur etiladi).

III. Tekislik nuqtalarini inversion akslantirishda:

- a) inversiya aylanasi nuqtalari o'z o'rnini o'zgartmaydi;
- b) inversiya aylanasi tashqarisidagi nuqtalar inversiya aylanasi ichkarisidagi nuqtalarga o'tadi;
- v) inversiya aylanasi ichidagi (markazdan boshqa) nuqtalar inversiya aylanasi tashqarisidagi nuqtalarga o'tadi.

Haqiqatan, bu jummalarning to'g'riligini $|OA| \cdot |OA'| = r^2$ (1) dan kelib chiqarish mumkin:

a) A nuqta inversiya aylanasi yotganida $|OA| = r$ bo'lib, (1) ga asosan $|OA'| = r$ bo'ladi, ya'ni A nuqtaning inversiyasi shu nuqtaning o'zi bo'ladi. Bundan inversiya aylanasi nuqtalari qo'shaloq nuqtalardan iboratligi, ya'ni ular inversiyada o'z o'rinlarini o'zgartirmasligi ma'lum bo'ladi;

b) agar A nuqta inversiya aylanasi tashqarida yotsa, ya'ni $|OA| > r$ bo'lsa, (1) munosabat o'rinli bo'lishi uchun $OA' < r$ bo'lishi shart, ya'ni A' nuqta albatta,

inversiya aylanasi ichida yotadi, va, aksincha $|OA| < r$ bo'lsa, (1) ga ko'ra $|OA| > r$ bo'lishi shart, ya'ni A nuqta albatta aylana tashqarisida yotishi kerak.

IV. Inversion almashtirishda inversiya markazidan chiqqan nurning aylana ichidagi bo'lagi uning tashqi bo'lagiga o'tadi va, aksincha.

Buning to'g'riligi III xossaning «a» va «b» punktlaridan ma'lum bo'ladi.

V. Inversiya aylanasi radiusi cheksiz kattalashib borgan sari inversiya - shu aylanaga nisbatan simmetrik bo'ladi. Haqiqatan, inversiya aylanasi radiusi cheksiz ortib, aylana to'g'ri chiziqqa yaqinlashgan sari, inversion akslantirishning limitdagi to'g'ri chiziqqa nisbatan bajarilgan simmetrik akslantirishdan farqi deyarli qolmaydi.

Bunga ishonish uchun 1- chizmadagi OA nur bilan aylanani kesishgan nuqtasini D orqali belgilab, yana quyidagi shartlarni ham qabul qilaylik:

agar $|DA| = a$ desak; $|OA| = |OD| + |DA| = r + a$ bo'ladi;

agar $|A'D| = a$ desak, $|OA'| = |OD| - |OA'| = r - b$ bo'ladi.

$|OA|$ va $|OA'|$ kesmalarning keyingi ifodalarini (1) formulaga qo'ysak,

$$(r + a) * (r - b) = r^2$$

tenglik hosil bo'ladi.

Bu tenglikdan

$$a - b = \frac{ab}{r} \quad (4)$$

tenglik kelib chiqadi.

Endi bundagi r cheksiz orta borsa, ya'ni aylana to'g'ri chiziqqa intilsa (4) tenglikning o'ng tomoni nolga intilib,

$$a - b = 0 \text{ yoki } a = b \quad (5)$$

tenglik hosil bo'ladi.

VI. Bir markazga nisbatan turli darajalarda ketma-ket bajarilgan ikki inversiya o'sha markazga nisbatan bajarilgan gomotetiya, ya'ni

$$I_0^{r^2} 1 (A) + I_0^{r^2} 2 (A) = H_0^{\left(\frac{r_2}{r_1}\right)} (A).$$

Haqiqatan

$$I_0^{r_2^2} 1 = |OA| * |OA'| = r_1^2, \quad (1)$$

$$I_0^{r_2^2} 2 = OA' * OA'' = r_2^2 \quad (2)$$

(2) tenglikni (1) ga hadlab bo'lsak, quyidagi chiqadi:


$$\frac{|OA''|}{|OA|} = \left(\frac{r_2}{r_1}\right)^2. \quad (3)$$

Endi aylanaga inversion mos figuralarni va ularni yasashini ko'rib chiqamiz.

1-Teorema. *Inversiya markazidan o'tuvchi aylanaga inversion mos figura inversiya markazidan o'tuvchi to'g'ri chiziqdir.*

Haqiqatan, 3- I chizmadagi i aylanaga inversion figura, inversiya involyutsion moslik bo'lgani uchun l to'g'ri chiziq bo'ladi.

Demak, inversiya markazidan o'tuvchi l aylanaga inversion mos to'g'ri chiziq quyidagicha yasaladi: dastavval ikkala aylananing markazlar chizig'i o'tkaziladi (3- chizma);




3-rasm

bu chiziqning berilgan l' aylana bilan kesishgan (inversiya markazidan boshqa) A' nuqtasini inversion almashtirib, A nuqta topiladi, so'ngra OO_1 to'g'ri chiziqqa uning A nuqtasi orqali l perpendikulyar o'tkaziladi.

2 - Teorema. *Inversiya markazidan o'tmovchi aylanaga inversion mos figura o'sha markazdan o'tmovchi aylanadir.*

Inversiya markazi ayni vaqtda inversion aylanalarining gometyetiya markazi ham bo'ladi.

Buni isbot qilish uchun $i(O, r)$ inversiya aylanasi bilan berilgan $v(O_1, r_1)$ aylananing markazlar chizigini chizamiz (4-chizma).



4-rasm

Markazlar chizig'i v aylanani A va B nuqtalarda kessin. Bu nuqtalarni i aylanaga nisbatan inversion almashtiraylik.

A va B nuqtalarga inversion mos nuqtalar A' va B' bo'lsin. $A'B'$ kesmani diametr qilib v' aylana chizamiz. Keyingi aylana berilgan aylanaga inversion mos bo'ladi. Buning to'g'riligini isbot qilaylik. v aylanadagi ixtiyoriy P nuqtaga i aylanaga

nisbatan inversion bo'lgan P' nuqtani topib, bu nuqtaning v' aylanaga qarashli bo'lishini ko'rsatamiz. P' nuqtaning v' aylanada yotishiga ishonish uchun uni A' va B' nuqtalar bilan tutashtirishdan hosil bo'lgan $A'P'B'$ burchakning to'g'ri burchak ekanligi isbot qilinsa kifoya. Buning uchun $A'P'B'$ burchakning to'g'ri burchak bo'lgan APB burchakka tengligi - isbot qilinsa bas.

4- chizmaning tuzilishiga tayanib, mana bu tengliklarni yozamiz:

$$\angle OPB \cong \angle OB'P'$$

$$\angle OPA \cong \angle OA'P'$$

Bu tengliklarning birinchisidan ikkinchisini ayirsak, quyidagi tenglik chiqadi:

$$(\angle OPB - \angle OPA) \cong (\angle OB'P' - \angle OA'P').$$

Chizmaning tuzilishiga muvofiq, bu tenglikning chap tomoni $APB = 90^\circ$ ga va o'ng tomoni esa $A'P'B'$ burchakka teng bo'lgani uchun keyingi burchakning ham to'g'ri burchak ekanligi ma'lum bo'ladi.


Shuning bilan teoremaning birinchi qismi isbot bo'ladi. Demak, P nuqta v aylana bo'yicha harakat qilganda P' nuqta $A'B'$ diametr bilan chizilgan v' aylan bo'yicha harakat qiladi.

Agar v' aylanada yotuvchi ixtiyoriy bir nuqta olsak, u v aylanada yotuvchi biror nuqtaga inversion mos bo'lishini ko'rsatish mumkin. Shuning uchun v aylanaga inversion figura v' aylana bo'ladi. 5- chizmada O_1 nuqtaga inversion mos nuqta O'_1 nuqtadir.


Bunda shuni ham aytib o'tish lozimki, inversion mos v va v' aylanalarning markazlari umuman o'zaro inversion mos bo'lmaydi.

Endi teoremaning ikkinchi qismini isbot qilaylik.

Ma'lumki, ikki aylanadagi parallel radiuslarning uchlari orqali o'tuvchi to'g'ri chiziq bilan markazlar chizig'ining kesishish nuqtasi o'sha ikki aylananing o'xshashlik markazi bo'ladi.



5-Rasm



6-Rasm

SHuning uchun OP to'g'ri chiziqning P' va M nuqtalarini O_2 va O_1 markazlar bilan tutashtiruvchi $P'O_2$ va MO_1 radiuslarning o'zaro parallel bo'lishini isbot qilsak kifoya. $\angle OPB \cong \angle OB'P'$ bo'lgani uchun ularga qo'shni burchaklar ham kongruent bo'ladi, ya'ni

$$\angle BPM \cong \angle O_2 B'P'.$$

Umumiy MC yoyga tiralganliklari uchun quyidagi ichki chizilgan burchaklar ham kongruent bo'ladi:

$$\angle BAM \cong \angle BPM.$$

Bu ikki tenglikdan:

$$\angle O_2 B'P' \cong \angle BAM.$$

Bularning har biridan 2 marta katta bo'lgan markaziy burchaklarni ham bir-biriga quyidagicha tenglashtira olamiz:

$$\angle A' O_2 P \cong \angle B O_1 M.$$

SHuning uchun $P'O_2$ va MO_1 radiuslar o'zaro parallel bo'lib, MP' bilan markazlar chizig'ining kesishgan O nuqtasi v va v' aylanalarning gomotetiya markazi bo'ladi. Bunda parallel radiuslar markazlar chizig'ining bir tomonida bo'lgani uchun O nuqta tashqi o'xshashlik markazi bo'ladi.

Shunday qilib, chizmadagi P' nuqta P nuqtaga inversion mos va M nuqtaga esa gomotetik mosdir. Agar OM kesuvchini O markaz atrofida aylantirib, uni inversion mos ikki aylanaga umumiy urinma holatiga keltirsak, M nuqta P nuqta bilan birlashib, bitta P urinish nuqtasini hosil qiladi; P' nuqta ham ikkinchi aylanadagi urinish nuqtasiga aylanadi. Demak, inversion mos bo'lgan ikki aylanaga inversion markazidan o'tkazilgan umumiy tashqi urinmaning P va P' urinish nuqtalari o'zaro inversion va gomotetik mos bo'ladi.

Keyingi teoremaga ko'ra inversiya markazidan o'tmovchi aylanani inversion almashtirish uchun quyidagi yo'llardan birini ishlatish mumkinligi ma'lum bo'ladi:

Birinchi yo'l. Inversiya aylanasi bilan berilgan v aylananing OO_1 markazlari chizig'i o'tkaziladi (4- chizma). Bu chiziqning berilgan aylana bilan kesishgan A va B nuqtalarini inversion akslantirib, A' va B' nuqtalar topiladi. So'ngra $A'B'$ kesmani diametr qilib v' aylana chiziladi.


Ikkinchi yo'l. Berilgan v aylananing OO_1 to'g'ri chiziqda yotmagan biror P nuqtasini inversion akslantirib, P' nuqta topiladi (4- chizma) OP nurning v aylana bilan kesishgan ikkinchi nuqtasi M ni aylananing O_1 markazi bilan tutashtiriladi. P' nuqtadan $(P'O_2) \parallel (MO_1)$ to'g'ri chiziq o'tkaziladi. Bu to'g'ri chiziqning OO_1 to'g'ri chiziq bilan kesishuvidan izlangan aylananing O_2 markazi hosil bo'ladi. O_2 markazdan O_2P' radius bilan chizilgan v' aylana berilgan v aylananing inversiyasi bo'ladi.

Endi, uchrashi mumkin bo'lgan xususiy hollarni ko'rib o'taylik.

I. Agar (4- chizmadagi kabi) v aylana inversiya aylanasi i bilan umumiy nuqtaga ega bo'lmasa va undan tashqarida yotsa v aylanaga inversion mos v' aylana i aylananing ichida joylashib, i bilan umumiy nuqtaga ega bo'lmaydi.

Bu holda inversiya markazi O nuqta inversion aylanalarining tashqi o'xshashlik markazi bo'ladi.


II. Agar (7- chizmadagi kabi) i aylana berilgan v aylananing ichida yotsa, v' aylana i aylananing ichida joylashib O nuqta v' ning ichida yotadi va bu nuqta inversion v va v' aylanalarining ichki o'xshashlik markazi bo'ladi.




7-Rasm

III. Agar 8 va 9- chizmalardagi kabi i va v aylanalar o'zaro kesishsa, v' aylana ularning kesishish nuqtalaridan o'tadi.

Bu holda inversiya markazi inversion aylanalarining ba'zan tashqi va ba'zan ichki o'xshashlik markaziga to'g'ri keladi.




8-rasm




9-Rasm

IV. Agar i aylana v bilan biror nuqtada urinsa, v' ham unga o'sha nuqtada urinadi (10 va 11- chizma).




10-rasm



11-rasm

v va v' aylanalar tashqi urinuvchi bo'lganlarida inversiya markazi tashqi o'xshashlik markaziga to'g'ri kelib (10- chizma), ular ichki urinuvchi bo'lganlarida esa O markaz ichki o'xshashlik markaziga to'g'ri keladi (11- chizma).

V. Agar i aylana v ga ortogonal bo'lsa, v' aylana v bilan ustma- ust tushadi; haqiqatan, i aylananing markazidan v ga o'tkazilgan kesuvchi va urinmalarning xossalriga muvofiq (12- chizmadan) quyidagilarni yozsak bo'ladi:



12-rasm

$$|OA| * |OA'| = |OB| * |OB'| = |OC| * |OC'| = |ON|^2 = |OD|^2.$$

Bulardan quyidagilar ma'lum bo'ladi:

$$I(A) = A', I(B) = B', I(C) = C',$$

bularga tayanib, $I[DAN] = DA'N$ deyish mumkin.

Demak, inversiya aylanasi bilan ortogonal kesishgan aylananing tashqi va ichki bo'lagi o'zaro inversion mos bo'ladi.

Yuqorida ko'rilgan hollarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Inversiya markazi yo ikkala inversion mos aylanalarning tashqarisida yotadi (8 va 10- chizma), yoki ikkalasining ham ichkarisida yotadi (7, 9, va 11- chizmalar);


birinchi holda inversiya markazi inversion aylanalarga tashqi gomotetik markazi bo'lib, ikkinchi holda esa ularga ichki gomotetik markazi bo'ladi.

VI. Inversiya aylanasi kontsentrik aylana unga kontsentrik bo'lgan ikkinchi aylanaga akslanadi va inversiya markazi inversion aylanalarning ichki va tashqi gomotetik markazlari bo'ladi. Bunda: agar akslanuvchi v aylana inversiya aylanasi katta bo'lsa unga mos v' aylana i dan kichik bo'ladi va, aksincha v aylana cheksiz kattalashib to'g'ri chiziqqa intilgan sari v aylana kichrayib inversiya markaziga intiladi, v aylana inversiya aylanasi yaqinlashgan sari v' aylana ham unga yaqinlashib boradi.

Inversiya aylanasi o'z-o'ziga mos bo'lgani uchun uning hamma nuqtalari ham o'z-o'ziga mosdir.

VII. Ikki inversion mos A va A' nuqtalardan o'tuvchi hamma aylanalar inversiya aylanasi ortogonal bo'lgan aylanalarning elliptik dastasini tuzadi va $OA'A$ to'g'ri chiziq bu dastaning radikal o'qi bo'ladi (13- chizma).

13- chizmada berilgan $i(O, r)$ aylanaga nisbatan inversion mos bo'lgan A va A' nuqtalardan o'tuvchi hamma aylanalar birortasini, masalan, $v'(O_1, r)$ aylanani i ga ortogonalini isbot qilaylik. Buning uchun quyidagi tenglikning mavjudligini isbot qilinsa kifoya:



13-rasm

$$|OO_1|^2 = r^2 + r_1^2 \quad (1)$$

Chizmaning tuzilishiga ko'ra quyidagilar mavjud:

$$OO_1 = OA' + A'O_1 = OA' + r_1. \quad (2)$$


$$OO_1 = OA - AO_1 = OA - r_1. \quad (3)$$

Bu ikki tenglikni hadlab ko'paytirib, berilgan $|OA| \times |OA'| = r^2$ munosabatni e'tiborga olsak, izlanuvchi (1) tenglik kelib chiqadi.

A va A' nuqtalardan o'tuvchi boshqa aylanalarga nisbatan ham (1) tenglikning mavjudligini shunday isbot qilish mumkin. Lekin, bunda quyidagini nazarda tutish kerak:

$$|OB| * |OB'| = |OC| * |OC'| = \dots = |OA| * |OA'| = r^2 \quad (4)$$

Bu (4) munosabatsdan ko'rinadiki, inversiya markazi bo'lgan O nuqta A va A' nuqtalardan o'tuvchi hamma aylanalarga nisbatan bir xil darajaga ega, ya'ni O nuqtadan bu aylanalarga o'tkazilgan hamma urinmalarning kesmalari bir-biriga teng va urinish nuqtalarining geometrik o'rnini inversiya aylanasi iboratdir (bunga inversiya aylanasi bilan OA urning kesishish nuqtasi kirmaydi).



14-rasm

2-BOB. Sferaga nisbatan inversiya


2.1§ Sferaga nisbatan inversiya va uni xossalari.

Fazodagi markazi O nuqtada bo'lib radiusi R bo'lgan sferaga nisbatan inversiya deb fazoning shunday almashtirishiga aytiladiki bunda har bir O dan farqli M nuqta OM nurda yotuvchi shunday M' nuqtaga o'tadiki bunda

$$OM \cdot OM' = R^2 \quad (1)$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

Yuqoridagi sfera inversiya sferait deyilad, O nuqtaga inversiya markazi, R inversiya radiusi deyiladi.



1-rasm

Bu ta'rifdagi M va M' nuqtalar teng kuchli hisoblanadi, ya'ni agar $M \rightarrow M'$ bo'lsa u holda, $M' \rightarrow M$ bo'ladi bitta inversiyaga nisbatan. Buning ma'nosi shuni berilgan sferaga nisbatan inversiyaga nisbatan teskari almashtirish ham bu inversiya bilan ustma ust tushadi. Shuning uchun inversiya involyusion almashtirish bo'ladi.

Inversiyada w sferidagi nuqtalar o'z o'ziga o'tadi.

OM to'g'ri chiziqni o'z ichiga oluvchi ixtiyoriy tekislik w sferani uning katta aylanasi bo'ylab kesadi . Shuning uchun sferaga nisbatan inversiyada M nuqtaning obrazi M'ni yasash masalasi kesimdagi katta aylanaga nisbatan inversiyada M nuqtaning obrazini yasash masalasiga keladi .

Xuddi tekislikdagi inversaning koordinatalardagi ifodasiga o'xshash tarzda fazodagi $x^2 + y^2 + z^2 = R^2$ sferaga nisbatan inversaning formulasi keltirib chiqariladi. Agar M' (x' , y' , z') nuqta M (x,y,z,) nuqtaning obrazi bo'lsa u holda quydagilar inversiyaning koordinatalardagi ifodasi bo'ladi :

$$x' = \frac{R^2 x}{x^2 + y^2 + z^2} , \quad y' = \frac{R^2 y}{x^2 + y^2 + z^2} , \quad z' = \frac{R^2 z}{x^2 + y^2 + z^2} \quad (2)$$

Sferaga nisbatan inversiyada A va B nuqtalarning obrazlari orasidagi A' B' masofa A B masofa orqali quydagicha ifodalanadi:

$$A'B' = AB \frac{R^2}{OA * OB} \quad (3)$$

Endi fazoda sferaga nisbatan inversiyada tekislik va sferalar to'rg'i chiziq va aylanalarning akslari bo'lishini ko'rib chiqamiz.

O nuqtadan ya'nidan inversiya markazidan o'tadigan tekislik (to'g'ri chiziq) O nuqtani hisobga olganda o'z o'ziga akslanadi.

Inversiya markazidan o'tuvchi S'sferaning aksi bu sfera va inversiya sferasi markazlaridan o'tuvchi to'g'ri chiziqqa perpendikulyar tekislik bo'ladi bu tekislik inversiya markazidan $\frac{R^2}{2r}$ masofada joylashgan, bu yerda r – S' sferaning radiusi. Shunisi qiziqki inversiya markazidan o'tadigan tekislikning aksi inversiya markazidan o'tuvchi sfera bo'ladi. Bu sferaning diametri OA kesma bo'ladi, bu yerda A nuqta O markazning berilgan tikislika ortogonal proeksiyasi.

Inversiya markazidan o'tmaydigan J sferaning aksi J' bo'ladi. Bu xosil qilingan J' sfera inversiya markazidan o'tmaydi. W, J, J' sferalarning markazlari bir to'g'ri chiziqda yotadi. J va J' sferalarning markazlari w sferaga nisbatan inversiyada bir biriga mos emas.

To'g'ri chiziq va aylanalar tekisliklar va sferalarning kesishgan chiziqlari bo'lgani uchun quydagi tasdiqlar o'rinli:


Agar aylana inversiyaning markazidan o'tsa uning aksi to'g'ri chiziq bo'ladi, aks holda agar aylana inversiya markazidan o'tmasa uning aksi aylana bo'ladi.

Agar j sfera inversiya sferasi w ga ortogonal bo'lsa j sfera bu inversiyada o'z o'ziga o'tadi.

Agar w sferaga nisbatan inversiyada o'zaro inversion mos ikkita nuqta J sferada yotsa u holda J va w sferalar o'zaro ortogonal bo'ladi.

Teorema: Ikkita inversion mos aylanalar bitta sferaga yoki bitta tekislikka tegshli bo'ladi.

Isbot: Agar α va α' aylanalar bitta tekislikda yotsa isbot ravshan. α aylananing A va B nuqtalari va inversiya markazi O nuqta bitta to'g'ri chiziqda yotmasin.




2-rasm

A va B nuqtalarning akslari A' va B' nuqtalar α' aylanaga tegishli bo'ladi .
 A, B, A', B' , nuqtalar bitta δ aylanada yotadi. α va δ aylanalar ikkita umumiy A
va B nuqtalarga ega , shuning uchun bitta S' sferani aniqlaydi . Bu sfera
inversiyada o'ziga akslanadi. Shu ikki inversiya sferasi W ortogonal bo'ladi. W
sfera markazi O ning S' sferaga nisbati darajasi
 $OA * OA' = R^2$, ya'ni W sfera radiusining kvadratiga teng demak α aylana
tegishli bo'lgan

2.2. Inversiyada egri chiziqlar orasidagi burchakning o'zgarmasligi.

Tekslikdagi inversiya kabi fazodagi sferaga nisbatan inversiyada ham ikkita egri chiziqlar orasidagi burchak saqlanadi. Bu xossa bevosita quyidagi limmadan kelib chiqadi.

Lemma. Agar J' egri chiziq J egri chiziqning fazodagi inversiyaga nisbatan aksi bo'lsa u holda, $JvaJ'$ egri chiziqlarga mos ravshda $AvaA'$ nuqtalarda o'tkazilgan t va t' urinmalar bu nuqtalarning simmetriya teksligi α ga nisbatan simmetrikdir.



3-rasm

